



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil,
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7507053>

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS MASALALARI

Mahamadaliyev R.Y.

g.f.n., dotsent

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Xidirova Tursunoy Qo‘ldosh qizi

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada turistik resurslar va ularning rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlar yoritilgan. Shuningdek soxa rivojidadagi muommolarga to‘xtatalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: rekreatsiya, turistik marshrut, turistik xizmat, turizm industriyasi.

SPECIFIC ISSUES OF TOURISM DEVELOPMENT

Mahamadaliyev R.

Khidirova T.

Annotation: This article describes the tourist resources and measures for their development. He also touched upon the problems in the development of the industry.

Key words: recreation, tourist route, tourist service, tourism industry.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarida ta’kidlaganidek, “turizm va xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish” dolzarbdir. [1]

Turizm sohasida ulkan imkoniyatlar mavjudligiga qaramay, O‘zbekistonning turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlari sifati va uning darajasi, shuningdek, tarmoqni boshqarish tizimi globallashtirish va keskin raqobat sharoitida zamonaviy talablarga mos kelmaydi. Turizmning mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shayotgan hissasi, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va aholini ish bilan ta’minlash uchun milliy xo‘jalikda ishlab chiqarilgan xizmatlarni eksport qilish va xorijning moliyaviy manbalaridan foydalanish yoki xorijiy texnika va texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Bunday imkoniyatlardan foydalanib, milliy xo‘jalikni taraqqiy ettirishning turli strategik yo‘nalishlari mavjud. Jumladan:

– turizm industriyasi subyektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, turizmni rivojlantirishdagi barcha to‘siq va g‘ovlarga barham berish;

– turizmning yangi salohiyatli turlari – ziyorat, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik, sport, rekreatsiya, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik, bolalar, yoshlar va oilaviy turizmni jadal rivojlantirish;

– respublika mintaqalarida turizm infratuzilmasining zamonaviy obyektlari, eng avvalo, mehmonxonalar, transport-logistika tuzilmalari, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish;

– raqobatbardosh turizm mahsulotlarini ishlab chiqish, mintaqalarda yangi turizm yo‘nalishlarini yaratish, ularni jahon turizm bozorlariga olib chiqish;

– turizm tarmog‘i uchun malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish strategiyalari va hokazo.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim I.S.To‘xliyevning ta’rifiga ko‘ra, “turizm – bu turistlar tomonidan amalga oshiriluvchi, aniq belgilangan turistik maqsadlarga ega ommaviy sayohatlar yani rekratsiya turidir”. [3]

Turizm – bu dam olishni tashkillashtirishning murakkab va ommaviy hodisasi va shakli, tashqi dunyoni bilish uchun imkon, xizmatlar va biznes sohasida mintaqalararo va xalqaro hamkorlik maydoni, mintaq va davlat siyosatining bir qismi hisoblanadi. [3]

Avvalo, turizmni rivojlantirish o‘ziga xos tabiatiga ko‘ra bir qator resurslarga, shu jumladan, geografik omil va mintaqaviy xususiyatlariga bog‘liqdir. Shuning uchun ham yuqori turizm salohiyatiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishni maqsad qilar ekanmiz, buni amalga oshirishga mintaqaviy jihatdan yondashish lozim. Chunki, mintaqalarda turizmni rivojlantirish butun bir mamlakat turizm sohasining rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Mintaqaviy turizm bozorining asosiy obyektlaridan biri – turistik xizmatlar bo‘lib, turistik xizmatlar – bu turistik ehtiyojlarni qondiruvchi asosiy, qo‘shimcha va kompleks xizmatlar majmuyidir. Ular asosiy xizmatlarga sayyohlikni tashkil qilish va o‘tkazish uchun zarur xizmatlar, qo‘shimcha xizmatlarga sayohat o‘z ichiga olmagan va ehtiyoj bo‘lgan holda dam olish joyida taqdim qilinadigan xizmatlar majmuyini kiritish o‘rinli bo‘ladi.

Xorijiy sayyohlarga ko‘rsatiladigan har qanday turistik xizmatlar eksport qilish bilan barobar bo‘lib, bu chetdan keladigan valyuta tushumlarini ko‘payishiga zamin yaratadi.

Hozirgi kunda mintaqadagi turizmni rivojlantirishdagi asosiy muammolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- mintaqa oliygohlarida turizm sohasida mutaxassis tayyorlovchi mutaxassislik yo‘nalishining yo‘qligi;
- turizm obyektlarining turlari va joylashuvi bo‘yicha yagona reyestrning mavjud emasligi;
- turistik marshrutlarning to‘liq va mukammallashtirilmaganligi;
- turoperatorlarning mintaqa turizmini to‘liq namoyon qilmasligi;
- soha bo‘yicha marketing va menejmentning shakllanmaganligi;
- mintaqada mavjud turistik obyektlardan samarali foydalanmasligi;
- turistik infratuzilmalarning rivojlanishining sustligi;
- turizmning zamonaviy turlarini mavjud emasligi;
- ichki turistlar potentsionalidan foydalanmaslik.

Mamlakatimizdagi turizm rivojlanishida asosi bu albatta soha bo‘yicha mutaxassislarning tayyorlanishi hisoblanadi. Mintaqa oliygohlarida turizm sohasida mutaxassis tayyorlovchi mutaxassislik yo‘nalishining yo‘qligi shu kunga qadar soha rivojining respublikaning boshqa mintaqalaridan sust rivojlanishiga sababchi bo‘lib kelgan.

2019–2020-o‘quv yilidan boshlab mintaqadagi Termiz davlat universitetida turizm sohasida mutaxassislar tayyorlash ishlari boshlandi. Lekin soha bo‘yicha malakali kadrlarni yo‘qligi yoki xorijdan mutaxassislar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yilmaganligi mazkur mutaxassislarni sifat darajasiga ta’sir ko‘rsatish mumkin.

Mintaqadagi turistik obyektlarning shu kunga qadar to‘liq inventarizatsiyadan o‘tkazilmaganligi natijasida turizm obyektlarining turlari va joylashuvi bo‘yicha yagona reyestrning shakllanmasligi sabab bo‘lmoqda. Turistlar uchun turistik obyektlar bo‘yicha ma’lumotlar deyarli yo‘q. Turistik xaritalar faqatgina O‘zbekiston milliy atlasida doirasida keltirilgan, lekin obyektlarning joylashuvi turi haqida aniq ma’lumotlar ushbu xaritada mavjud emas.

Turizm marshrutlarini ishlab chiqishdagi birinchi talab esa turizm resurslarini mukammal bilishni talab qiladi. Rekratsion turistik resurs, obyektlari quyidagilar:

1. Tabiiy turistik resurslar: relyef (orografiya), suvlar (gidroografiya) iqlim, flora, fauna va boshqalar.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy turistik resurslar: madaniy-tarixiy, etnografiya va boshqalar.

Ushbu rekreatsion resurslar bo‘lgan tabiat qo‘riqxonasi, tarixiy, tabiiy, tabiat va uning boyliklari, madaniy obida, arxeologiya, madaniy meros va hokazolarga turist har taraflama o‘ng‘aylikda boradigan marshrutni talab qiladi. Ushbu turistik marshrutda turist yoki turistlar mazmunli dam olish, qoniqish olgandan keyin, asta-sekinlik bilan turistlar oqimini o‘ziga jalb qila boshlaydi. Respublikamizdagi barcha turistik resursga, obyektga, manzil-u makonga maskanga yo‘l bor. Bu yo‘llar asfaltli, toshli, mahalliy tuproq yo‘llari, so‘qmoqlar va hakoza ko‘rinishlaridir. Lekin, bu yo‘llarda turistik

marshrut xizmatlari tashkil qilingandan keyingina turistik resursda turistlar soni ko'payishi mumkin.

Turistik marshrutda turistlarning transport vositalarida harakatlanishi davrida bu transport vositalari faqat turist yoki turistlarga xizmat qiladi. Turistik marshrutda transport vositalarining haydovchilari yo'l-yo'lakay odamlarni olishi yoki kira haqi uchun ishlamaydi va bunga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, turistik marshrutda turistlarning xohishi yoki iltimoslari bilan marshrut rahbarining ruxsati bilangina marshrutning oldindan belgilangan yo'nalishi yoki yo'nalishlari o'zgarishi, o'zgartirilishi mumkin.

Umuman olganda turizm alohida davlatda jahon miqyosida rivojlanishi uchun birinchi navbatda dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan turistik resurslari bo'lishi talab qilinadi. Aniqrog'i shundan iboratki, chet ellik turistlarning talablarini o'rganganimizda har 100 turistdan 60-65 tasi vatanimizdagi tabiat qo'riqxonalarini ko'rish istagini bildirishgan. Lekin, hozirgacha tabiat qo'riqxonalarimizdan turizmga foydalanishning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilmagan. Shu sababli chet ellik turistlarning tabiat qo'riqxonalarimizdan foydalanishdagi taklif va talablari rad qilinmoqda. Bunday noxush holatlar albatta tuzatilishi lozim.

Xulosa qilganimizda, har qanday turistik obyekt turizmga foydalanishga ruxsat berilgan va ushbu turistik obyektga turistik marshrutlar ishlab chiqilgandan keyin ichki va xalqaro turizmga ishlay boshlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 13.08.2019 yildagi PF-5781-son Farmoni
2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1996. -190 b
3. Tuxliyev.I.S, Qudratov G'.X, Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. «Iqtisodiyot moliya» nashriyoti. Toshkent 2010. 254 bet.